

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2  
0  
2  
4



No 9

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Bosh muharrir:**  
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 274 sahifa.  
E'lon qilishga 2024-yil 7-sentyabrda ruxsat etildi.*

**Bosh muharrir o'rinbosari:**  
Karimov Norboy G'aniyevich

**Muharrir:**  
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

## Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri  
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari  
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati  
Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori  
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori  
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori  
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori  
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.  
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessori  
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori  
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori  
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori  
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori  
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i  
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori  
Musayeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori  
Cham Tat Huei, ( PhD) USCI universiteti professori, Malayziya  
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari  
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi  
Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH  
Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH  
Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya  
Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.  
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti  
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti  
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

## Editorial board:

**Salimov Oqil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Rae Kwon Chung**, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

**Osman Mesten**, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich**, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Sayfullo Normatovich** CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

**Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich**, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

**Siddikova Sadokat Ghaforovna**, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Samadov Askarjon Nishonovich**, CSc, Prof., of TSUE

**Slizovsky Dimitriy Yegorovich**, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

**Akhmedov Ikrom Akramovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli**, DSc, Prof., of TSUE

**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

**Ochilov Farkhod**, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

**Eshtayev Alisher Abduganievich**, DSc, Prof., of TSUE

**Shoira Azimovna Musaeva**, professor of SamDu IS Institute

**Cham Tat Huei**, PhD, professor at USCI University, Malaysia

**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

**Judy Smetana** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Chrissy Lewis** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Ali Konak** DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

**Glazova Marina Viktorovna**, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, associate professor of TSUE

**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, independent researcher of TSUE

## Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, t.f.d., profesor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, f.f.d., TDIU professori  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, i.f.d., TDIU professori  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, i. f. n., TDAU dotsenti  
**Rustamov Ilhomiddin**, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, i.f.d, TDIU dotsenti  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, p.f.f.d., (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, i.f.f.d, TDIU dotsenti  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, i.f.d., TMI dotsenti  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

## Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishning bozor mexanizmlari va ularni joriy etishdagi muammolar .....	21
<b>Yusupov Shoxzod Maxmatmurodovich</b>	
Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish davrlari ekonometrik modelini yaratish masalalari .....	24
<b>Abdullayev Farxod Ozodovich</b>	
Marketing yondashuvi asosida Sirdaryo viloyatining investitsion salohiyatini baholash usullari.....	35
<b>Xolmurotova Diyoraxon Ibragimovna</b>	
Bevosita soliqlar ma'muriyatchiligi.....	41
<b>Idirisov Alisher Otajonovich</b>	
Soliq nazorati va transfert narxni belgilashda soliq nazoratini tashkil etishning xorij tajribalari.....	46
<b>Abdiev Jaxongir Ibragimovich</b>	
Soliq siyosati va strategiyasining ilmiy-nazariy tahlili.....	53
<b>Djumaniyazov Marks Quranbaevich</b>	
Pestel tahlili – muvaffaqiyatli investitsiya qarorlarini qabul qilish asosi .....	60
<b>Shaislamova Nargiza Kabilovna</b>	
Tijorat banklari tomonidan biznes loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos xususiyatlari .....	67
<b>Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li</b>	
The significance, problems and solutions of the green economy in the New Uzbekistan economy.....	74
<b>Sattorova Mehriniso, Ibragimova Gulchehra Tohirovna</b>	
O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni soliqqa tortishning joriy qilinishi va rivojlanish tendensiyasi .....	79
<b>Otamuradov Nuriddin Najmiddinovich</b>	
Korporativ boshqaruvni innovasion rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari .....	87
<b>Xalmuradov Elmurod Dilmuradovich</b>	
Международный опыт стимулирования инновационной деятельности.....	93
<b>Абдиуалиева Гулзада Азатовна</b>	
How does foreign direct investment promote economic growth? .....	98
<b>O'tkirova Bonu Azamat kizi</b>	
Mintaqalarni barqaror rivojlantirishning konseptual asoslari va ular evolyutsiyasi.....	102
<b>Umarov Abduvaxob Tursunovich</b>	
Technological Innovations of Electronic Payment Systems.....	107
<b>Mirkomil Boboyorov Murodullaevich</b>	
Ta'lim xizmatlari sohasida davlat-xususiy sherikligining rivojlanishida xorij tajribasining o'rni va ahamiyati.....	115
<b>Imomov Xolmurod Norqul o'g'li</b>	
O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiya va xorijiy kreditlar jalb qilish samaradorligi tahlili .....	119
<b>Maksudov Abdumalik Xodievich</b>	
Davlat ehtiyojlari uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilishni takomillashtirish .....	124
<b>G'ofurov Temur Baxrom o'g'li</b>	
Mamlakatimizda oziq-ovqat sanoatini rivojlanish holati va uning dolzarbligi .....	129
<b>Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li</b>	



Turizmda innovatsiyalarni qo'llash imkoniyatlari.....	133
<b>Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li</b>	
Davlat budgetining solikli daromadlari tahlili .....	139
<b>Abduraimova Nigora Radjabovna</b>	
Soliq yuki soliq tizimining qanchalik samarali ekanligini aniqlovchi muhim mezon .....	143
<b>To'lakov Ulug'bek Toshmamatovich</b>	
O'zbekiston sanoat korxonalarida xom ashyo resurslaridan samarali foydalanishning hozirgi holati, muammolari va mintaqaviy xususiyatlari (qashqadaryo viloyati misolida) .....	151
<b>Ochilov Akram Odilovich, Xazratov Sarvar Ibragimovich</b>	
Состояние туристической инфраструктуры Ташкентской области.....	156
<b>Гаппарова Майрамхон Зафар кизи</b>	
Sanoatlashuvning ekologik ta'siri va "yashil" iqtisodiyotga o'tishning asoslari .....	161
<b>Nosir Maxmudov, Lola Azimova</b>	
Iqtisodiyotni raqamlashtirishda sinergetik ta'sirning nazariy asoslari .....	167
<b>Maxmudova Zoxida Maqsudali qizi, Normurodov Xusan</b>	
Davlat budjeti xarajatlaridansamarali foydalanishni takomillashtirish.....	173
<b>Sherxon Tuychiyev</b>	
Savdo korxonalarida ta'minot zanjirining asosiy bosqichlari va muammolari.....	177
<b>Ergashev Jahongir Baxodirovich</b>	
Kichik biznes subyektlarining innovatsion loyihalarni moliyalashtirish yo'llari .....	180
<b>Ergashev Firuz Baxodirovich, Ishturdiyev Hasan Abdigapparovich</b>	
Budjet tashkilotlarida qurilish-ta'mirlash xarajatlari hisobining asoslari.....	184
<b>Azizova Zilola Lochin qizi</b>	
Xorijiy mamlakatlarda tadbirkorlik subyektlari tomonidan mahalliyashtirish asosida mahsulot ishlab chiqarishning o'ziga xos jihatlari .....	191
<b>Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich</b>	
Suv ekologiyasining asosiy yo'nalishi va uning fandagi o'rni.....	200
<b>Musayeva Muqaddas Abdurashid qizi</b>	
Анализ прибыли агропромышленности .....	204
<b>Гафурова Азизахон Фатиховна</b>	
Systematic analysis of briquette mass pressing equipment approach .....	209
<b>Kobilov Khasan Khalilovich, Sharipova Nazira Rakhmatilloevna</b>	
An Econometric Assessment of the Effects of Fintech on Economic Growth in Developed Countries .....	213
<b>Anvarkhonov Abdulatifkhon Jamshidkhon ugli</b>	
Raqamli iqtisodiyot rivojida korporativ boshqaruv faoliyatining roli .....	216
<b>Muxitdinov Ulug'bek Diyarovich</b>	
Значение промышленной сети в развитии деятельности предприятий малого бизнеса.....	221
<b>Кодиров Жавлонбек Нематуллаевич</b>	
Tadbirkorlik kambag'allikni qisqartirishning asosiy yo'nalishi.....	225
<b>Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich</b>	
Kichik biznes subyektlarida mahsulot ishlab chiqarishda innovatsiyani joriy etish masalalari .....	230
<b>Mirzayev Kobil Nosirjonovich</b>	
Investisiya faoliyatini moliyalashtirish manbalarini rivojlantirish mexanizmlari.....	236
<b>Ismailov Dilshod Anvarjonovich</b>	
Innovasion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida sifat menejmentini joriy etishning nazariy-uslubiy masalalari.....	242
<b>Zarina Ashurova</b>	



Social media marketing strategies for small businesses.....	247
<b>Mannonov Shahzod Istam ugli</b>	
Xalqaro shartnomalar qoidalarini qo'llashning xalqaro va milliy uslubiy tamoyillarining o'zaro ta'siri.....	250
<b>Rajapov Shuxrat Zaripbaevich</b>	
Neft-gaz, yoqilg'i energetika sanoati sohasidagi yirik soliq to'lovchilarda soliq nazoratini samarali tashkil etish va takomillashtirish masalalari.....	258
<b>Abdullaev Shuxrat Sultanbaevich</b>	
Суть и значимость инновационных технологий в региональном управлении.....	266
<b>Муминов Фазлиддин Хусниддин угли</b>	



# BUDJET TASHKILOTLARIDA QURILISH-TA'MIRLASH XARAJATLARI HISOBINING ASOSLARI

Azizova Zilola Lochin qizi

TDIU tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** Budjet tashkilotlari faoliyatini amalga oshirishda asosiy vositalar va inventarlarning ishchi holatini ta'minlash uchun qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshiriladi. Ushbu qurilish-ta'mirlash ishlariga oid xarajatlarning maqsadli bo'lishini va ular to'g'risida tizimlashtirilgan zarur axborotlarni shakllantirish uchun ularning hisobi yuritiladi. Ayniqsa, davlat budjetidan moliyalashtiriluvchi budjet tashkilotlarida qurilish-ta'mirlash xarajatlari tarkibi va ular hisobining asoslarini tadqiq etish zarur. Ushbu maqolada budjet tashkilotlarida qurilish-ta'mirlash xarajatlari hisobining nazariy va uslubiy jihatlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** budjet, budjet tashkiloti, moliyalashtirish, xarajat, hisob, hisobot.

**Abstract:** Construction and repair works are carried out to ensure the working condition of the main assets and inventories in the activities of budget organizations. Accounts are kept for the purposes of these construction-repair expenses and to provide systematic and necessary information about them. In particular, it is necessary to study the composition of construction and repair costs and the basis for their calculation in budget organizations financed from the state budget. This article describes the theoretical and methodological aspects of accounting for construction and repair costs in budget organizations.

**Key words:** budget, budget organization, financing, cost, accounting, report.

**Аннотация:** Строительно-ремонтные работы проводятся для обеспечения работоспособного состояния основных средств и материальных средств в деятельности бюджетных организаций. Учет ведется для целей данных строительно-ремонтных расходов и для формирования систематической и необходимой информации о них. В частности, необходимо изучить состав затрат на строительство и ремонт и основу их учета в бюджетных организациях, финансируемых из государственного бюджета. В данной статье рассмотрены теоретические и методологические аспекты учета затрат на строительство и ремонт в бюджетных организациях.

**Ключевые слова:** бюджет, бюджетная организация, финансирование, затраты, учет, отчет.

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatida bir qator muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan biri, 2024-yildan boshlab har yili kamida 100 ta umumiy o'rta ta'lim muassasalarini qurishdir. Shuningdek, 2024–2030-yillarda 432 ta madaniyat markazlarida qurilish-ta'mirlash ishlarini amalga oshirish va rivojlangan davlatlarda qabul qilingan qurilish xavfsizligi me'yorlari asosida yangi standartlarni joriy qilish maqsad qilib qo'yilgan.

Mamlakatda olib borilayotgan islohotlar samaradorlikni oshirish va resurslardan tejamkorlik bilan foydalanishga asoslanadi. Davlat budjeti hisobidan qurilish sohasiga ajratilayotgan mablag'lar hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. 2024-yilga mo'ljallangan loyihalarga ko'ra, 317 ta maktab qurilishi va rekonstruksiya qilinishi rejalashtirilgan, ammo joylardagi talabni va masalaning muhimligini inobatga olib, Prezident Shavkat Mirziyoev qo'shimcha ravishda yana 150 ta maktab qurilishi uchun mablag' ajratish taklifini kiritdi.

Ushbu mablag'larni oqilona va samarali sarflash muhim ahamiyatga ega bo'lib, joylarda amalga oshiriladigan qurilish-ta'mirlash ishlarida ajratilgan mablag'larning natijadorligini oshirish zarur.

Shu bilan birga, ajratilayotgan mablag'lardan oqilona foydalanish va ularning natijadorligini oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Bunda, nazoratni amalga oshiruvchi tashkilotlarda mutaxassislar soni va vaqtning chegaralanganligi, ayni paytda ajratilayotgan mablag'lar hajmining ortib borishi eng muhim muammolardan biri sifatida ko'rsatilgan. Hozirgi kunda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, davlat moliyaviy nazorati tizimida qurilish-ta'mirlash xarajatlarini va ularning hisobini o'rganish zarur. Shuningdek, bu yo'nalishdagi izlanishlar va tadqiqotlarning etarli darajada emasligi ushbu mavzining dolzarbligi va ahamiyatini belgilab beradi.



Bundan tashqari, budget tashkilotlarida qurilish-ta'mirlash xarajatlarini moliyalashtirish va uning hisobini to'g'ri yuritish bo'yicha ilmiy asoslangan tadqiqotlarni amalga oshirish zarurati paydo bo'lmoqda. Bu tadqiqotlar davlat resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlash hamda qurilish-ta'mirlash ishlarining sifatini va natijadorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Budget tashkilotlarida qurilish-ta'mirlash xarajatlarini amalga oshirish va ularning hisobini yuritish bo'yicha nazariy va uslubiy asoslarni yaratish va takomillashtirish masalalarida asosan xorijlik iqtisodchi olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Bu olimlar qatoriga M. Vasileva, V. Jukov, N. Kondaurova, S. Ryabuxin, A. Saunin, E. Smirnov, S. Stepashin, Z. Chernyadevalarni kiritish mumkin. Ular budget tashkilotlarida qurilish-ta'mirlash xarajatlarining iqtisodiy jihatlarini o'rganib, bu sohadagi muammolarni keng yoritishgan.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari ham ushbu yo'nalishda tadqiqotlar olib borib, ta'mirlash xarajatlarini rejalashtirish, amalga oshirish, moliyalashtirish va ularning hisobini yuritishga oid nazariy jihatlarni o'rganishgan. Bu tadqiqotlarda asosan moliyaviy hisobot, buxgalteriya hisobi va ichki audit xizmatining rivojlanishi va uning nazariy jihatlari yoritilgan. Jumladan, K. Axmedjanov, R. Dusmuratov, B. Jumamuratov, A. Ibragimov, A. Karimov, M. Mamatqulov, S. Mexmonov, A. Ostonokulov, M. Pardaev, B.B. Sugirbaev, T. Haydarov, B. Hamdamov va Sh. G'anievlarining asarlari bu sohadagi muhim ishlarining nazariy asoslarini ko'rsatadi.

Biroq, ushbu olimlar tomonidan budget mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan qurilish-ta'mirlash xarajatlarini amalga oshirish, ularning hisobini yuritish va auditini tashkil etish kabi masalalar umumiy nazariy jihatlar orqali yoritilgan va batafsil amaliy tahlilga unchalik e'tibor berilmagan. Shu sababli, bu yo'nalishda ham nazariy, ham amaliy jihatlarni qamrab oluvchi ilmiy tadqiqotlar o'tkazish zarur. Ushbu tadqiqotlar orqali qurilish-ta'mirlash xarajatlari va ularning hisobini yuritishni yanada mukammallashtirishga va davlat moliyaviy nazoratining samaradorligini oshirishga imkoniyat yaratiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ishlanmani shakllantirishda quyidagi ilmiy usullardan keng foydalanildi: abstrakt mantiqiy fikrlash, taqqoslash, guruhlash, kuzatish va tahlil qilish, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, monografik kuzatuv, shuningdek, statistik va iqtisodiy tahlil usullari. Ushbu metodlar ishlanmaning nazariy asoslarini shakllantirish, amaliyotdagi holatlarni tahlil qilish va qurilish-ta'mirlash xarajatlari hisobining samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalarni ilmiy jihatdan asoslash uchun qo'llanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bizga ma'lumki, har qanday asosiy vosita va inventarlar eskirish xususiyatiga ega. Shu sababdan ham buxgalteriya hisobida eskirish me'yorlari asosida asosiy vositalarni, shu jumladan, bino va inshootlarni eskirishining hisobi yuritib boriladi. Vaqt o'tishi bilan budget tashkilotlari balansidan turgan bino va inshootlar hamda inventarlar jismonan, ham ma'nan eskiradi. Shu bilan birga, shiddat bilan o'zgarib borayotgan zamonda budget tashkilotlari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarga xalqning ehtiyoji va talablari ortib boradi. Bunday ehtiyoj va talablarni doimiy qondirib borish zarur. Budget tashkilotlari o'z funksiyalarini belgilangan tartibda yuqori darajada amalga oshirishlari uchun bino va inshootlardagi shart-sharoitlar doimo ishchi va soz holatda bo'lishi juda muhimdir. Binolarning kommunikasiya tizimlari, quvurlari, aloqa vositalari, issiqlik va sovuq suv tizimlari doimo soz holatda bo'lishi, zamonaviy shart-sharoitlar yaratilishi tashkilotda strategik ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun budget mablag'lari hisobidan xarajatlar amalga oshiriladi. Qurilish-ta'mirlash xarajatlarini amalga oshirish uchun tegishli mutaxassislar tomonidan bino va inshootlarning holati o'rganilishi va o'rganish natijasida tuzilgan nuqson dalolatnomalari asos bo'lib xizmat qiladi.

Budget tashkilotlarida qurilish-ta'mirlash ishlarini amalga oshirishda o'ziga xos jihatlarni ko'rib chiqamiz. Qurilish-ta'mirlash ishlari buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish masalalarida o'zini ta'sirini o'tkazuvchi bir qator o'ziga xos xususiyatlar mavjud bo'lib, ulardan eng muhumlari:

1. Uzoq muddatli ishlab chiqarish sikli. Qurilish jarayoni bir va undan ortiq hisobot davriga cho'zilishi.

Muhimligi:

- Obyektning tannarxi qurilishning butun davri davomida aniqlanadi;
- Hisob-kitoblar shartli tayyor mahsulotlar uchun amalga oshiriladi. Masalan, ishning tugallangan bosqichidan so'ng, muayyan ish turlari yopiladi;
- Daromad va moliyaviy natijalar ham qurilish tugallanganidan so'ng, ham qurilish obyektining bir qismi tayyor bo'lganda shakllanadi.

2. Qurilish-ta'mirlash ishlarining jamoaviy xususiyati. Qurilishda mehnatga haq to'lashning jamoaviy (brigada) shakliga asosan qo'llanilishi. Buning muhimligi shundaki:




- Jamoa (brigada) a'zolari o'rtasida mehnatga haq to'lashni taqsimlashning aniq usullarini qo'llash (masalan, mehnat ishtiroki koeffitsienti (KTU) yordamida hisoblash);
- Mukofotning maxsus shakllari qo'llanilishi (masalan, ma'lum miqdordagi ishni muddatidan oldin bajarish uchun).

2. Katta miqdordagi xomashyo materiallar xarajati. Qurilish jarayonida hajm jihatidan ham, nomenklatura bo'yicha ham ko'p xil turdagi materiallar qo'llaniladi. Ular turli narxlarda hisobga olinishi mumkin (masalan, qurilishning uzoq muddatligi va inflyasiya tufayli narxlarning o'zgarishi, shuningdek, etkazib beruvchilarning xilma-xilligi).

3. Moliyalashtirish manbai. Obyektlarni moliyalashtirish alohida tartibda markazlashtirilgan manbalar (davlat budjeti va budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar mablag'lari; Hukumat qarorlari bilan alohida tarmoqlar va korxonalarining maxsus mablag'lari hisobidan shakllanadigan mablag'lar; kafillik asosida yoki nomidan jalb qilingan xorijiy kreditlar) hisobidan amalga oshiriladi.

Ushbu hisob-kitob tartibida avansning mutanosib chegirilishini hisobga olgan holda bajarilgan ish haqining 95 foizi to'lanadi. Qolgan 5 foizi faqat shartnomada belgilangan kafolat muddati tugaganidan keyin to'lanadi. Bu debitorlik qarzlari uzoq vaqt davomida qayd etilishiga olib keladi, chunki kafolat muddati ish turiga qarab 1 yildan 3 yilgacha belgilanishi mumkin.



1- pacm. Budjet tashkilotlarida qurilish-ta'mirlash ishlarining turlari.

Bino va inshootlarni yangidan qurish – bu ma'lum bir er uchastkasidan noldan bino qurish jarayonini anglatadi. Yangi bino va inshootlar, turli maqsadlarda ularga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish maqsadida quriladi. Binoni yangi qurish jarayonida loyihalashtirishdan tortib, tayyor obyektning ishga tushirishgacha bo'lgan barcha bosqichlarni o'z ichiga qamrab oladi. Bunga sayt tanlash, loyihani ishlab chiqish, ruxsatnomalar va lisenziyalar olish, poydevor qurish, devorlar va tomlarni qurish, kommunal tarmoqlar tizimlarini o'rnatish kiradi. Yangi qurilishning maqsadi odamlarning hayoti va mehnati uchun yangi qulay sharoitlar yaratish, shuningdek, investisiya loyihalarini amalga oshirish bo'lishi mumkin.

Binoni qayta qurish – bu mavjud binolarning funktsionalligi, estetikasi va zamonaviyligini yaxshilash maqsadida uni qayta tiklash va modernizatsiya qilish jarayonini anglatadi. Qayta qurish binolarning rejasini o'zgartirish, tuzilmalarni mustahkamlash, kommunikatsiyalarni almashtirish va binolarning fasad qismini yangilashni o'z ichiga olishi mumkin. Bundan asosiy maqsad insonlarning yashash va mehnat sharoitlarini yaxshilash, shuningdek, binolarning energiya samaradorligini oshirishdan iboratdir. Qayta qurish ehtiyojlar va imkoniyatlarga qarab qisman yoki to'liq bo'lishi mumkin.

Mukammal ta'mirlash – bino yoki inshootni qayta tiklash va obodonlashtirish, jumladan, eskirgan tizim va kommunikatsiyalarni almashtirish, poydevor, tom, devor va boshqa inshootlarni ta'mirlash, shuningdek, ichki va tashqi ko'rinishini yangilash bo'yicha kompleks ishlarni anglatadi. Kapital ta'mirlash uy-joy yoki tijorat ko'chmas mulkining sifati va energiya samaradorligini yaxshilash, aholi yoki foydalanuvchilar uchun xavfsizlik va qulaylikni oshirish maqsadida amalga oshiriladi.

Joriy ta'mirlash – bu bino va uning elementlarini ishchan holatda saqlash uchun muntazam ravishda amalga oshiriladigan ta'mirlash ishlarini anglatadi. Bularga devorlarni bo'yash, shikastlangan deraza va eshiklarni, pollarni almashtirish, tomni ta'mirlash, elektr, santexnika va boshqalar kiradi. Joriy ta'mirlash mukammal ta'mirlash hisoblanmaydi va binolarning funktsionalligi hamda xizmat muddatini uzaytirish maqsadida amalga oshiriladi.

Budjet tashkilotlarida asosiy vositalarni kapital ta'mirlashda ikki xil yo'nalishga ajratib o'rganishimiz maqsadga muvofiqdir. Sababi shundaki, uskunalar va bino-inshootlarni kapital ta'mirlashda talablar bir-biridan farq qiladi.

Uskunalar va transport vositalarini kapital ta'mirlash – agregatni to'liq ajratib yig'ish, bazaviy va korpus detallari va uzellarini ta'mirlash, barcha eskirgan detallar va uzellarni almashtirish yoki tiklash hamda agregatni yig'ish, sozlash va sinab ko'rishni anglatadi. Binolar va inshootlarni kapital ta'mirlash esa bazaviy va korpus detallari va uzellarini ta'mirlash, barcha eskirgan konstruksiyalarning detallari va uzellarini almashtirish yoki tiklashni o'z ichiga oladi.



Asosiy vositalarni mukammal va joriy ta'mirlash xarajatlarini amalga oshirish uchun budget tashkilotlari g'aznachilik bo'limlaridan shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazishlari zarur. Bunda IV guruh xarajatlari bo'yicha shartnomalar amal qilish muddati tegishli moliya yilining 31 dekabridan kechikmagan muddatga tuzilishi lozim.

Davlat budjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirish ta'minlanadigan bino hamda inshootlarni mukammal ta'mirlashning manzilli ro'yxatlari har yili moliya organlarida ro'yxatga olingan yillik asosiy smetalarda ko'zda tutilgan mablag'lar doirasida buyurtmachilar tomonidan shakllantiriladi.

Budget tashkilotlarini saqlash xarajatlari yillik asosiy smetada ko'zda tutilgan mablag'lar doirasida tuzilgan binolar va inshootlarni mukammal ta'mirlashning manzilli ro'yxatlarida quyidagilar hisobga olinishi zarur:

- avvalgi yilda bino va inshootlarni mukammal ta'mirlashning manzilli ro'yxatlarida ko'zda tutilgan bajarilgan ishlar va xizmatlar, obyektlar bo'yicha etkazib berilgan qurilish materiallari va jihozlar uchun kreditlik qarzdorligini qoplash;

- o'tgan yilgi manzilli ro'yxatlarda hisobga olingan mukammal ta'mirlash obyektlarining tugallanishi;

- texnik pasportlari va belgilangan tartibda tasdiqlangan loyiha hujjatlari, jumladan, resurs smetasi (loyihani tasdiqlash kuniga Markaziy bank kursi bo'yicha mukammal ta'mirlashning boshlang'ich qiymati 10 ming AQSh dollaridan ortiq summaga ekvivalent bo'lgan obyektlar) yoki nuqson dalolatnomalari asosida tuzilgan mukammal ta'mirlash bo'yicha ishlar ro'yxatiga (loyihani tasdiqlash kuniga mukammal ta'mirlashning boshlang'ich qiymati Markaziy bank kursi bo'yicha 10 ming AQSh dollaridan ortiq bo'lmagan obyektlar uchun) ega bo'lgan mukammal ta'mirlash obyektlari;

- nuqson dalolatnomalariga asosan mukammal ta'mirlanishi zarur bo'lgan obyektlarning loyiha hujjatlarini, jumladan, resurs smetasini ishlab chiqish.

Budget tashkilotlarining xarajatlarini moliyalashtirish (to'lash) tartibi quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:


I. Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar (bolali oilalarga nafaqalar va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam, stipendiyalar va boshqalar); II. Ish haqiga qo'shimchalar; III. Mukammal qo'yilmalar (Davlat investisiya dasturida nazarda tutilgan aniq ro'yxatlarga muvofiq); IV. Boshqa xarajatlilar.

Qurilish-ta'mirlash xarajatlari, asosan, xarajatlarning uchinchi va to'rtinchi guruhida amalga oshiriladi, bundan tashqari, budget tashkilotlarining rivojlantirish jamg'armasi hisobidan ham amalga oshirilishi mumkin.

Budget tashkilotlarida qurilish-ta'mirlash ishlarini amalga oshirishning 2 xil usullari mavjud:

1. Podryad uslubi – bu uslubda qurilish va ta'mirlash ishlari maxsus tashkilotlarga yoki pudratchi kompaniyalarga tender asosida topshiriladi. Ushbu tashkilotlar obyektidagi barcha qurilish, ta'mirlash va jihozlash ishlarini to'liq amalga oshiradilar. Podryad uslubi ko'pincha katta miqdordagi yoki murakkab loyihalar uchun qo'llaniladi, chunki bu holatda ixtisoslashgan kompaniyalar va pudratchilar barcha ishlarni boshqarishlari lozim.

2. Xo'jalik uslubi – bu uslubda qurilish va ta'mirlash ishlari to'g'ridan-to'g'ri budget tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi. Xo'jalik uslubi asosan kichik miqdordagi yoki kam murakkablikka ega loyihalar uchun qo'llaniladi. Bunda tashkilotlar o'z xodimlari yoki vaqtinchalik ishchilar yordamida ta'mirlash va qurilish ishlarini bajaradilar. Bu uslub, ko'pincha, mablag'larni tejash maqsadida qo'llaniladi, lekin professional pudratchilar yoki qurilish tashkilotlari ishtirok etmaganligi sababli, ishlarning sifatiga va tezligiga ta'sir qilishi mumkin.



## 2-pacm. Qurilish-ta'mirlash ishlarini amalga oshirish usullari<sup>1</sup>.

Pudrat usulida amalga oshirilgan bo'lsa, buyurtmachi va pudratchi o'rtasida pudrat shartnomasi imzolanaadi. Bu fuqarolik-huquqiy bitim bo'lib, unga ko'ra, bir taraf (pudratchi) ikkinchi taraf (buyurtmachi)ning topshirig'iga binoan muayyan ishni bajarish va uning natijasini buyurtmachiga belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi. Buyurtmachi esa ish natijasini qabul qilib olish va buning uchun haq to'lash majburiyatini oladi.

O'zbekiston Respublikasida Pudrat shartnomasining maishiy pudrat, qurilish pudrati, loyiha va qidiruv ishlari pudrati, ilmiy tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va texnologiya ishlari pudrati kabi alohida turlari mavjud. Pudrat shartnomasi buyumni tayyorlash yoki qayta ishlash yoki boshqa ishni bajarib, uning natijalarini buyurtmachiga topshirish borasida tuziladi.

<sup>1</sup> Муаллиф томонидан тузилган.



Buyum tayyorlash uchun tuzilgan pudrat shartnomasi bo'yicha pudratchi buyumga bo'lgan huquqni buyurtmachiga beradi. Agar shartnomada boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, pudratchi buyurtmachining topshirig'ini bajarish usullarini o'zi belgilaydi. Agar pudrat shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, ish pudratchining nazoratida, uning xomashyo materiallaridan, o'zining ishchi kuchi bilan va asosiy vositalaridan foydalangan holda bajaradi.

Pudratchi o'zi bergan materiallar va uskunalarning sifatiga, shuningdek, uchinchi shaxslarning huquqlari bo'lgan materiallar va uskunalarni berganligi uchun javob beradi. Agar qonun yoki pudrat shartnomasidan pudratchining shartnomada nazarda tutilgan ishni shaxsan bajarish majburiyati kelib chiqmagan bo'lsa, pudratchi o'z majburiyatlarini bajarish uchun boshqa shaxslar (subpudrat tashkilotlar)ni jalb qilishi mumkin. Bu holda pudratchi bosh pudratchi vazifasini bajaradi.

Pudrat shartnomasiga oid huquqiy holatlar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksida aks ettirilgan.

Xo'jalik usulida amalga oshirilgan qurilish-ta'mirlash ishlari budget tashkilotining o'z ishchi kuchi va vositalari yordamida amalga oshiriladi. Bunda ham qurilish-ta'mirlash ishlari boshlanishidan oldin har bir obyekt bo'yicha ularni ta'mirdan o'tkazishning zarurligini asoslash uchun obyektning ko'rikdan o'tkazish natijalari bo'yicha nuqson dalolatnomasi tuziladi. Unda obyektning texnik holati tavsifi, shuningdek, nosozliklar, nuqsonlarni bartaraf etish bo'yicha tavsiya qilinadigan tadbirlar va zarur ta'mirlash ishlarining hajmi bo'yicha takliflar keltiriladi.

Nuqsonlar dalolatnomasi budget tashkiloti rahbari tomonidan tasdiqlanadi. Budget tashkilotlarining buxgalteriya hisobi "Tugallanmagan qurilish" subschyotida, qurilish pudrat yoki xo'jalik usulida amalga oshirishidan qat'i nazar kapital qurilish smetalari, smeta-loyiha hisob-kitoblari va titul ro'yxatlarida keltirilgan bino va inshootlarni barpo etish, uskunalar, asboblari, inventarlar va boshqa jihozlarni sotib olish bo'yicha xarajatlar hisobga olinadi.

Agar qurilish xo'jalik usulida olib borilayotgan bo'lsa, qilingan xarajat summalariga "Tugallanmagan qurilish" subschyot debetlanadi va pul mablag'lari, hisob-kitoblari, qurilish materiallari va o'rnatiladigan jihozlar, mol etkazib beruvchilar va pudratchilar bilan olib boriladigan hisob-kitoblarning tegishli subschyotlari kreditlanadi.

Agar qurilish pudrat usulida olib borilayotgan bo'lsa, u holda pudratchilar tomonidan qurilish ishlari bajarilgandan so'ng to'lov uchun taqdim qilingan hisobvaraqlar summasiga "Tugallanmagan qurilish" subschyoti debetlanadi va "Mol etkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblari" subschyoti kreditlanadi. Bitkazilgan va foydalanishga topshirilgan qurilish obyektlari dalolatnomalar asosida asosiy vosita schyotning tegishli subschyotlari debetiga va "Tugallanmagan qurilish" subschyotining kreditiga yoziladi.

Bitkazilmagan hamda bitkazilib, lekin foydalanishga topshirilmagan, tegishli qabul qilish dalolatnomalari bilan rasmiylashtirilmagan qurilish obyektlari va rekonstruksiyalar bo'yicha xarajatlar "Tugallanmagan qurilish" subschyot bo'yicha keyingi yil balansiga o'tkaziladi.

Xo'jalik usulida amalga oshirilayotgan qurilishga "Tugallanmagan qurilish" subschyot bo'yicha qilingan xarajatlarning analitik hisobi xarajat elementlari, ya'ni ish haqi, materiallar, boshqa bevosita sarflar va ustama xarajatlarga bo'lingan holda har bir obyekt bo'yicha alohida yuritiladi.

Budget tashkilotlarida qurilish-ta'mirlash xarajatlarini amalga oshirishda shartnomalar tuzish va ularni shartlarini kelishib olish muhim jarayon hisoblanadi. Obyekt qurilishiga shartnoma tanlov savdolari natijalari bo'yicha belgilangan qurilishning butun davriga yangi qurilishga, ishlab turgan korxonalarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish va texnika bilan qayta jihozlashga tuziladi. Shartnoma O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni hamda mukammal qurilish sohasidagi boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq tuziladi. Markazlashtirilgan manbalar hisobiga obyektlar qurilishiga shartnomalap tuzish huquqiga ega bo'lgan tashkilot buyurtmachi hisoblanadi.

Markazlashtirilgan manbalar hisobiga obyektlar qurilishiga shartnoma bo'yicha pudratchilar tanlov savdolari shartlariga va tuzilgan shartnomaga muvofiq ishlar bajarilishini ta'minlashga qodir bo'lgan yuridik shaxslar bo'lishlari mumkin. Buyurtmachi va pudratchi, bosh pudratchi va subpudratchilar, loyiha tashkilotlari va asbob-uskunalar, qurilish materiallari va konstrupsiyalarini etkazib beruvchilar o'rtasidagi munosabatlar vositachi tashkilotlar va boshqa oraliq bo'g'inlarning ishtirokisiz faqat shartnoma asosida quriladi. Bunda ham moddiy-texnika resurslarini o'zaro bergan holda, ham ular berilmagan holda subpudrat tashkilotlar tomonidan ishlarning bajarilishi bitta obyekt qurilishi doirasida vositachining ishi hamda moddiy-texnika resurslarini tashqariga realizatsiya qilish, deb hisoblanmaydi.

Tanlov savdolari shartlariga muvofiq qurilish muddati bir kalendar yil doirasidan tashqariga chiqadigan obyektlar bo'yicha ikkinchi va keyingi yillarga ishlarning qoldiq hajmi qiymati belgilangan tartibda aniqlashtiriladi. Qoldiq qiymatning aniqlashtirilishi asosiy bosh shartnomaga ilova qilinadigan qo'shimcha bitim bilan pasmiylashtiriladi. Shartnomaga ishlar hajmining ko'payishi yoki loyihaning o'zgartirilishi bilan bog'liq o'zgartirishlar kiritilishiga qonun hujjatlarida belgilangan hollardan tashqari yo'l qo'yilmaydi.

Shartnoma tuzishda buyurtmachi va pudratchi alohida shartlar bilan qonun hujjatlariga muvofiq unda boshqa majburiyatlarni ham nazarda tutishlari mumkin. Subpudratchilar va etkazib beruvchilar (ishlab chiqaruv-

chilar)ni tanlash bosh pudratchi tomonidan tanlov savdolari natijalari bo'yicha tuzilgan bosh shartnoma bo'yicha majburiyatlar saqlanib qolinishi sharti bilan mustaqil amalga oshiriladi. Obyektlar qurilishiga shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishi qonun hujjatlariga muvofiq kafillik, kafolat shaklida va boshqa shakllarda ta'minlanadi. Obyekt qurilishi shartnomasida aks ettiriladigan o'zaro hisob-kitob shartlari qonun hujjatlari talablariga muvofiq belgilanadi.

Budjet tashkilotlarida qurilish ta'mirlash xarajatlarida o'zaro hisob-kitob qilish ular o'rtasida tuzilgan shartnomada nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun har oyda, hisobot davridan keyingi oyning 5-kunidan kechikmay, buyurtmachilar tomonidan moliya organiga belgilangan tartibdagi tacdiqlovchi hujjatlar bilan bippga belgilangan shakl bo'yicha Markazlashtirilgan mukammal qo'yilmalardan foydalanilishi to'g'risida hisobotlar taqdim etiladi. Obyektni foydalanishga tayyor holda qurishda buyurtmachi tomonidan moliya organiga mablag' bilan ta'minlash jadvaliga muvofiq qiymatining 50 foizi doirasida obyekt qurilishiga avans bepish va joriy mablag' bilan ta'minlash uchun mablag' ajratishga buyurtmanoma taqdim etiladi.

Qurilish-ta'mirlash xarajatlarini moliyalashtirish loyihalashtirish korxonalarini tomonidan ishlab chiqilgan loyiha-smeta hujjatlari hamda uni tegishli ekspertiza xulosasi asosida davlat xaridlari to'g'risidagi qonun talablaridan kelib chiqib, shartnoma orqali amalga oshiriladi. Odatda, shartnomada 15 yoki 30 foiz oldindan to'lov hamda bajarilgan ishga nisbatan qolgan qarzdorliklar oyma-oy avans to'lovlarini proporsional ushlab qolgan holda amalga oshiriladi. Qurilish smetasini chuqurroq o'rganadigan bo'lsak, u quyidagi yo'nalishlardan iboratdir:

1. ish haqi va ajratma;
2. qurilish mollari, mashina mexanizmlar, jihozlar;
3. pudratchining boshqa xarajatlari (odatda, statistika qo'mitasining 2005-yildagi ma'lumotlari asosida foizda belgilanadi).

Budjet mablag'lari hisobidan qurilish obyekti shartnoma shartlari asosida moliyalashtirilganda loyiha-smeta hujjatlarida yo'nalishlarga qancha miqdorda rejalashtirilganidan qat'i nazar, pudratchi tomonidan o'zi mustaqil xarajatlarni amalga oshiradi. Budjet mablag'lari bir marta pudratchi hisob raqamiga o'tkazib berilganidan so'ng pudratchi korxonani nazorat qilish imkoni bo'lmaydi. Qurilish bahosini shartnomaviy joriy narxlarda aniqlash qoidalari NQ 4.01.16-09 (2009) asosan qurilish obyektining dastlabki va shartnomaviy joriy narxlariga bo'linadi. Dastlabki narx – tanlov savdolari predmetining buyurtmachi yoki uning buyurtmasiga ko'ra loyiha yoki ixtisoslashgan tashkilot tomonidan belgilanuvchi narhidir. Shartnomaviy joriy narx esa – tanlov savdolari predmetining tanlov savdolari natijalariga ko'ra belgilanuvchi narhidir.

Bozor munosabatlarida markazlashgan yoki ularga tenglashtirilgan manbalar hisobiga qurilayotgan obyektlarning joriy narxlardagi shartnomaviy bahosini belgillash, odatda, tanlov asosida o'tkaziladigan savdo natijasiga asoslanib amalga oshirilishi lozim. Amaliyotda hozirda qurilish obyektlarini tanlov asosida tanlab olishda jami obyekt summasini dastlabki narhidan kelib chiqib tanlov o'tkaziladi. Lekin bunda barcha ishtirokchilar uchun pudratchining boshqa xarajatlari bir xil foizda ko'rsatiladi. Tanlov g'olibiga aylanish uchun ishtirokchilar ish haqi miqdori yoki qurilish mollari narhidan pasaytiradi. Natijada qurilish obyektlarida ishchilar oyligi kamayadi yoki sifatsiz qurilish mollari xarid qilinadi. Bu esa o'z-o'zidan qurilish obyektining sifatiga ta'sirini o'tkazadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Budjet tashkilotlarida qurilish-ta'mirlash xarajatlari hisobining bugungi kungacha nazariy asoslari tahlil qilingan, normativ-huquqiy hujjatlar o'rganilgan, uning mazmun-mohiyatini chuqur anglash maqsadida mahalliy va xorijlik olimlar fikrlari har taraflama o'rganilgan, bir qator ilmiy yondashuvlar umumlashtirilgan holda mualliflik ta'rifi shakllantirilgan. Shakllantirilgan mualliflik ta'rifiga tayangan holda qurilish-ta'mirlash xarajatlari hisobi boshqa sohalarga oid hisob ishlaridan ko'p jihatlari bilan farqlanishi ochib berilgan.

Budjet tashkilotlarida qurilish-ta'mirlash xarajatlari nima uchun amalga oshirilishi yoritib berilgan, O'zbekiston Respublikasida oxirgi yillarda amalga oshirilgan qurilish ishlarining davriy o'zgarishi tahlil qilingan, budjet tashkilotlarida qurilish-ta'mirlash ishlarini amalga oshirishda o'zgacha xususiyatlari va jihatlari ko'rib chiqilgan, qurilish-ta'mirlash ish turlari keng yoritib berilgan.

Budjet mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan bino va inshootlarni mukammal ta'mirlashning shakllantirilgan manzilli ro'yxatlarini tasdiqlovchi organlarning respublika miqyosidagi tuman va shahar miqyosigacha bo'lgan bo'g'inlari yoritib berilgan, qurilish-ta'mirlash ishlarini amalga oshirishning pudrat hamda xo'jalik usullari keng yoritilgan, qurilish-ta'mirlash xarajatlari auditini tashkil etishda auditorning asosiy vazifalari belgilanib berilgan.

Qurilish-ta'mirlash xarajatlari hisobining asosiy yo'nalishlari ikki xil, ya'ni hujjatlashtirish hamda hisobga olish masalalari yoritib berilgan. Qurilish-ta'mirlash xarajatlari hisobida xarajatlarni hujjatlashtirish, baholash, hisobini yuritish va hisobotni shakllantirish masalalari yoritib berilgan. Ushbu jarayonlarda ma'lumotlarni to'plash hamda qayta ishlashga kengroq urg'u berilgan.



O'zbekiston Respublikasida me'yoriy-huquqiy hujjatlarning turlari hamda ularning ierarxiyasi o'rganilgan, budjet tashkilotlarida qurilish-ta'mirlash xarajatlari hisobiga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan bog'liq muammolar tahlil qilingan, ishlab chiqilishi va qabul qilinishi lozim bo'lgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar taklif qilingan, o'rganilgan va tahlil qilingan muammolarni bartaraf etish yuzasidan ilmiy amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикасининг “Бюджет Кодекси” (ЎзР 26.12.2013й. ЎРҚ- 360-сон Қонуни билан тасдиқланган), <http://www.lex.uz>
2. Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 13 апрелдаги “Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида”ги ЎРҚ-404-сон Қонуни, <https://www.lex.uz>.
3. Ўзбекистон Республикаси Молия вазирининг 21 декабр 2010 йилдаги “Бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисоби тўғрисидаги йўриқномани тасдиқлаш ҳақида”ги 2169-сон буйруғи. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
4. Мехмонов С.У., Бюджет ташкилотларида ички аудит хизмати фаолиятини такомиллаштириш. “Молия ва банк иши” Электрон илмий журнали, 2-сон, март-апрель, 2019 й.
5. <https://www.imv.uz> - Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва Молия вазирлигининг расмий сайти. 6. <https://www.stat.uz> - Ўзбекистон Республикаси Статистика агентлигининг расмий сайти.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 9**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

